

Ashurova Nodiraxon Rafiqovna,

"University of economics and pedagogy" NOTM

(Andijon shaxridagi nodavlat oliy ta'lim muassasasi)

"Filologiya" kafedrası dotsenti (Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi)

"YOMG'IR" KONSEPTI OLAMNING LISONIY MANZARASINI O'RGANISH SIFATIDA (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI ASOSIDA)

UDK: 378.091.3:811.111

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2025_ISSUE_9_5](https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_9_5)

ASHUROVA N.R. "YOMG'IR" KONSEPTI OLAMNING LISONIY MANZARASINI O'RGANISH SIFATIDA (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI ASOSIDA)

Mazkur maqolada "yomg'ir" ("rain") konsepti ingliz va o'zbek tillari misolida olamning lisoniy manzarasi tarkibida lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Konsept – bu xalq tafakkuri, madaniyati hamda hayot tarzini o'zida mujassam etgan murakkab semantik birlikdir. Tabiiy hodisa bo'lgan yomg'ir har bir til va madaniyatda o'ziga xos ma'no, obraz hamda timsollar bilan ifodalanadi. Mazkur tadqiqotda "yomg'ir" konsepti bilan bog'liq frazeologik birliklar, metaforik ifodalar va xalq maqol-matallari lingvistik jihatdan o'rganiladi. Konsept – inson tafakkuri jarayonida tajriba va bilimlar asosida shakllanuvchi, turli semantik tarkibga ega bo'lgan mantiqiy-kognitiv birlik bo'lib, u har bir xalq tilida o'ziga xos mazmuniy jihatlar bilan namoyon bo'ladi. Xususan, ingliz tilida 'rain' konsepti odatda kuchli yog'ingarchilikni anglatuvchi so'zlar orqali ifodalanadi hamda ba'zida u ijobiy, ba'zida esa salbiy, hatto zerikarli ob-havo hodisasi sifatida talqin qilinadi. O'zbek tilida esa yomg'ir ko'proq hayotbaxshlik, mo'l-ko'l hosil, baraka va to'kinchilik timsoli sifatida qaraladi. Rus tilida esa, yomg'ir aksar hollarda yomon kayfiyat yoki noqulay tabiat hodisasi sifatida ifodalanadi. Til tizimidagi bunday farqlar har bir xalqning tabiiy muhitga, hayot tarziga, tarixiy tajribasiga va estetik qarashlariga bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli, bitta konseptning turli tillardagi ifodaviy vositalarini qiyosiy-lingvokulturologik jihatdan o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada aynan "yomg'ir" konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy kuzatishlar va tahlillar ilgari suriladi.

Tayanch so'z va tushunchalar: konsept, yomg'ir, lisoniy manzara, ingliz tili, o'zbek tili, lingvokulturologiya, metafora, frazeologizm.

АШУРОВА Н.Р. "КОНЦЕПТ «ДОЖДЬ» КАК СРЕДСТВО ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА (НА МАТЕРИАЛЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

В данной статье концепт «дождь» («rain») рассматривается с лингвокультурологической точки зрения в рамках языковой картины мира на материале английского и узбекского языков. Концепт представляет собой сложную семантическую единицу, отражающую мышление народа, его культуру и образ жизни. Как природное явление, дождь в каждом языке и культуре осмысливается по-разному, приобретая определённые значения, образы и символы. В исследовании анализируются фразеологические единицы, метафорические выражения и народные пословицы, связанные с концептом «дождь». Концепт является логико-когнитивной единицей, формирующейся в процессе человеческого мышления на основе опыта и знаний, и в каждом

языке проявляется в специфических семантических чертах. В частности, в английском языке концепт rain преимущественно выражается через лексику, обозначающую сильные осадки, и может интерпретироваться как положительное, так и отрицательное, а иногда даже надоедливое погодное явление. В узбекском языке дождь чаще воспринимается как символ жизненной силы, изобилия, благодати и достатка. В русском языке, напротив, дождь нередко ассоциируется с плохим настроением или неприятным природным явлением. Такие различия в языковом выражении концептов обусловлены природными условиями, образом жизни, историческим опытом и эстетическими представлениями каждого народа. В связи с этим сопоставительное лингвокультурологическое исследование вербализации одного и того же концепта в разных языках представляет собой одно из актуальных направлений современной лингвистики. Настоящая статья посвящена научному анализу и описанию лингвокультурных особенностей концепта «дождь».

Ключевые слова и понятия: концепт, дождь, языковая картина мира, английский язык, узбекский язык, лингвокультурология, метафора, фразеологизм.

ASHUROVA N.R. "THE CONCEPT OF "RAIN" AS A MEANS OF STUDYING THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD (BASED ON ENGLISH AND UZBEK)

This article presents a linguocultural analysis of the concept "rain" in the linguistic worldview as reflected in English and Uzbek languages. The concept is a complex semantic unit that embodies the worldview, culture, and way of life of a particular nation. As a natural phenomenon, rain is represented with distinct meanings, images, and symbols in different languages and cultures. This study explores phraseological units, metaphorical expressions, and folk sayings associated with the concept of rain. The concept is a logical-cognitive unit that reflects meanings formed through human thought processes based on experience and knowledge, and it manifests differently in each language depending on its semantic structure. In English, the concept of "rain" is typically expressed through lexemes denoting heavy precipitation and is often associated with both positive and negative connotations, including pleasant or unpleasant weather conditions. In Uzbek, however, rain is predominantly perceived as a symbol of vitality, abundance, blessing, and prosperity. In Russian, rain is more frequently associated with negative emotional states or as an inconvenient natural occurrence. Such differences in conceptual representation stem from each nation's unique natural environment, lifestyle, historical experiences, and aesthetic values. Therefore, the comparative linguocultural study of how a single concept is verbalized across different languages has become one of the pressing issues in contemporary linguistics. This article aims to reveal the linguocultural characteristics of the "rain" concept through scholarly observation and analysis.

Key words and concepts: concept, rain, linguistic worldview, English language, Uzbek language, linguoculturology, metaphor, phraseologism.

Kirish. Til inson tafakkuri va madaniyatining aksidir. Har bir xalqning dunyoni idrok etish shakli o'z tilida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bu hodisa lingvistikada "olamning lisoniy manzarasi" (linguistic worldview) tushunchasi orqali izohlanadi. Tabiat hodisalari, xususan, yomg'ir kabi voqealar lisoniy manzaraning ajralmas qismi hisoblanadi. "Yomg'ir" konsepti esa turli tillarda turlicha assotsiatsiyalar, obrazlar va qadriyatlar bilan bog'liq. Mazkur maqolada "yomg'ir" konsepti ingliz va o'zbek tillarining lingvokulturologik kontekstida o'rganiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Konsept - bu kollektiv ongning til orqali ifodalangan va etno-

madaniy xususiyatlar bilan belgilangan birligi bo'lib, uni to'liq anglash uchun til, ong va madaniyatni kompleks o'rganish zaruriyatiga ko'ra "Yomg'ir" konseptining ingliz va o'zbek tillariga xos lisoniy manzaralar tarkibida hali to'liq o'rganilmaganligi bilan belgilandi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — "Yomg'ir" konseptining milliy lisoniy manzara tarkibiy qismi sifatida amalga oshish xususiyatlarini o'zbek va ingliz tillari materiallari asosida o'rganishdan iborat. Tadqiqotning ushbu bosqichida biz "konsept" tushunchasini anglashga oid turli yondashuvlarni tahlil qildik, shuningdek, "lisoniy manzara" tushunchasiga aniqlik kirit-

dik va ushbu ikki tushuncha o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqladik.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Bugungi kunga kelib, olamning lisoniy manzarasiga oid ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Ushbu mavzu turli fan sohalariga oid olimlar tomonidan turli jihatlaridan ishlab chiqilmoqda, jumladan: "olam manzarasi" tushunchasining o'zi, uning turlari (lisoniy va konseptual manzara) hamda ularning o'zaro munosabati masalalari o'rganilgan. Bu boradagi tadqiqotlar Y.D. Apresyan, N.D. Arutyunova, G.A. Brutyaning, E. Bartminskiy, A. Vejbitskaya, V.G. Gak, Yu.N. Karaulov, G.V. Kolshanskiy, R.I. Pavilenis, V.I. Postovalova, G.V. Ramishvili, B.A. Serebrennikov kabi olimlar ilmiy ishlarida o'z ifodasini topgan.

Milliy lisoniy manzaraning mentalitet bilan bog'liqligini o'rganishga doir tadqiqotlar T.D. Gachev, V.V. Kolesov, V.N. Teliya, A.D. Shmelev kabi olimlar tomonidan olib borilgan; konseptning olam manzarasi tarkibiy qismi sifatida psixolingvistik tabiatini o'rganish esa A.A. Zalevskaya va R.M. Frumkina tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Olam manzarasining kognitiv jihatlarini ishlab chiqish A.P. Babushkin, N.N. Boldyrev, V.Z. Demyankov, A.V. Kravchenko, E.S. Kubryakova, Z.D. Popova va I.A. Sterninlarning ilmiy izlanishlarida aks etgan; olam manzarasini lingvokulturologik nuqtai nazardan ko'rib chiqish hamda konseptlarni "madaniyatning zarralari" sifatida tavsiflash esa V.I. Karasik, G.I. Slyshkin va Yu.S. Stepanov tadqiqotlarida o'rganilgan.

Olam manzarasining tarkibiy qismlari sifatida insonning ichki va tashqi olamini tasvirlash masalalari rus tadqiqotchilari S.G. Vorkachev va M.V. Pimenova tadqiqotlarida yoritilgan bo'lsa, "ob-havo" va "yomg'ir" konseptlari T.A. Popova hamda M.V. Dombrovskaya tomonidan ko'rib chiqilgan. Biroq shunga qaramay, "Yomg'ir" konseptining ingliz va o'zbek tillariga xos lisoniy manzaralar tarkibida hali to'liq o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Maqolaning ilmiy mohiyati shundan iboratki, unda "yomg'ir" konsepti (ya'ni "ob-havo" konseptosferasining muhim segmentlaridan biri) milliy lisoniy manzaralarning tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi va shu orqali konseptual tadqiqotlardagi muayyan bo'shliqni to'ldirishga

urinish amalga oshiriladi (ingliz va o'zbek tillari misolida).

Tadqiqotning obyekti. Mazkur tadqiqotning obyekti - "yomg'ir" konsepti milliy lisoniy manzaraning tarkibiy qismi sifatida, tadqiqot predmeti esa - "yomg'ir" konseptining turli lisoniy manzaralarda (ingliz va o'zbek tillarida) ifodalanishiga xizmat qiluvchi til vositalaridir.

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar. Izlanishlarimiz davomida adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan usullar majmui qo'llaniladi: nazariy (tahliliy-statistik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (so'rovlar, suhbat, kuza-tish).

Asosiy qism. Konsept - bu inson ongidagi umumlashtirilgan bilimlar, his-tuyg'ular, tajribalar majmui bo'lib, til orqali ifodalanadi. Konseptlar odatda metaforalar, frazeologizmlar, iboralar, timsollar orqali tilga tatbiq etiladi.

Tilshunos Sh.Safarov o'zining "Kognitiv tilshunoslik" kitobida "konsept asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi, konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi hamda ular uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi", deb yozadi¹.

E.S.Kubryakovaning fikricha: "Konsept-mental tuzilma bo'lib, u turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar kvanti yoki umumlashmasidir"².

Konsept haqida turlicha mulohazalar mavjud: konsept - bu tasavvur (umumiy tasavvur) (S.A.Askoldov), konsept-bu fikrlashning sinkretik birligi, ya'ni haqiqatni bo'linmas va butun aks ettiruvchi fikrlash birligi (P.V.Chesnokov), konsept-bu ma'no, ma'noning algebraik ifodasi (D.S.Lixachev), konsept-bu milliy bo'yoqlar ma'nosi (V.V.Kolesov), konsept-bu leksema ma'nosining invarianti (E.V.Raxilina), konsept-bu mazmun, ya'ni tushuncha tarkibi, "konsept" termini "mazmun, tushuncha" terminiga sinonim hisoblanadi (Yu.S.Stepanov), konsept-bu so'z, ya'ni kalit so'z (A.Vejbitskaya), konsept-bu ma'nolar tuzilishining mahsulidir, ular freymalar, ssenariylar, sxemalar shaklida yuzaga chiqadi (M.R.Galieva), shuningdek, bu termin yana quyidagicha tal-

¹ Safarov.Sh Kognitiv tilshunoslik . Jizzax-2006

² Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. М., 2004. С.9.

qin qilinadi: "kollektiv ong'dagi madaniy ma'noga ega bo'lgan ma'lumot"; "mental tuzilish"; "uning barcha belgilangan aloqalari va munosabatlari haqidagi bilim"; "madaniyatning inson ong'dagi yig'indisi" va h.k. Nazarimizda, konseptni alohida lisoniy shaxsni sotsium bilan bog'laydigan va uni etnik guruhga kiritadigan etnomadaniyat birlik deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Va shu asosda bu tushunchaning ta'rifini quyidagicha shakllantirish mumkin. Konsept-bu ma'lum sotsiumning ma'naviy yoki moddiy madaniyatini til belgilari bilan bog'lab turadigan hodisa haqidagi bilimdir. Konseptni bunday tushunish etnomadaniy maqsadga qaratilganlik xarakteriga ega bo'lib, konseptni go'yo mental, falsafiy va psixologik sohadan qadriyatli-madaniy sohaga o'tkazadi.

Tushunchalar (konseptlar). Ular asosan tilda mavjuddir, ularning sharofati tufayli odamlarning tajribasini tartibga solib bo'ladi. Masalan, biz atrofimizni o'rab turgan olam predmetlarining shaklini, rangini, ta'mini idrok qilamiz, ammo turli madaniyatlarda olam turlicha tashkil qilingan. Tilni o'rganish insonga uni o'rab turgan olamda o'z tajribasi asosida uning past-balandini, umuman borlig'ini tushunish imkoniyatini beradi¹.

Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi xususida shunday yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlari ifodalaydi².

Olamning lisoniy manzarasi. Olamning lisoniy manzarasi haqidagi V.A. Maslova o'zining "Svyaz mifa i yazo'ika" nomli kitobida: "Olam, manzarasini insonning dunyo haqidagi bilimlari tashkil etadi va u individual hamda ijtimoiy ong negizida yotadi. Til esa, o'z navbatida, bil-

ish jarayoni talablarini ado etadi va turli tillarda so'zlashuvchi odamlar, muayyan vaziyatlarda bir-biriga yaqin, o'xshash konseptual olam manzaralarini namoyon etishlari mumkin. "Bir tilda so'zlashuvchilar esa, ulardan farqli o'laroq, turli dunyo manzaralarini o'z onglarida yaratadilar"-deb, yozadi³.

Olamning lisoniy manzarasini tilda fikrlash deb qarash mumkin, chunki, birinchidan, olamning manzarasi oddiygina suratga olish emas - bu fahmlash yoki taqlid qilishdir; ikkinchidan, ko'rib chiqilayotgan (muhokama qilinayotgan) tasavvur yoki in'ikos tovushli xarakterga ega, ya'ni u amalga oshiriladi va til shaklida mavjud bo'ladi.

Olamning lisoniy manzarasi reallikning ob'yektiv bilimlarini to'ldiradi. Til shaklida aks ettirilgan bu bilimlarning majmui turli konseptsiyalarda "oraliqdagi lisoniy olam", "olamni tilda qayta lasavvur qilish", "olamning lisoniy modeli", "olamning lisoniy manzarasi" deb ataladigan tushunchalardan iborat. Tilshunoslikda bu tushuncha ko'p tarqalganligi bois biz "olamning lisoniy manzarasi" terminini tanlaymiz. "Olam manzarasi" tushunchasi (shu jumladan olamning lisoniy manzarasi) insonning borliq haqidagi tasavvurlarini o'rganishdan tashkil topgan. Borliq-bu inson va muhitning birgalikdagi o'zaro munosabati, olam manzarasi esa - "muhit va inson haqidagi ma'lumotni qayta ishlash natijasidir". "Manzara" ("kartina") so'zida biz, eng avvalo, biror narsaning in'ikosi (aks etishi) haqida o'ylaymiz, ammo, mazmunan, "olam manzarasi" tushunchasi borliqni tasvirlovchi manzarani emas, balki, tushunchalarni manzara sifatida ifodalaydi. "Olamning lisoniy manzarasi" termini-bu metaforaga qaraganda kengroq tushuncha, chunki voqelikda ma'lum bir kishilar jamoasining noyob ijtimoiy-tarixiy tajribasi qayd qilingan milliy tilning o'ziga xos xususiyatlaridir. Bu til sohiblari uchun ob'yektiv mavjud bo'lgan olam manzarasidan ajralib turadigan qandaydir betakror olam manzarasini yaratmaydi, balki predmetlarning milliy ahamiyati, hodisalar, jarayonlar, mazkur xalqning o'ziga xos faoliyati, turmush tarzi va milliy madaniyati keltirib chiqaradigan, o'ziga xos ma'naviy o'zgachaligini yaratadi. Olam manzarasining individual va ijt-

¹ Mainatov, A. E. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma / A.E.Mamatov. — Toshkent.: "Noshir" nashriyoti, 2019. 29 - bet.

² Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti.- T,2012.

³ Maslova V.A. Kognitiv lingvistikaga kirish: O'quv qo'llanma / V.A. Maslova. — M.: Flinta: Nauka, 2004. — 296 bet.

moiy anglash asosida yotgan narsani olamni bilish deb atash mumkin. Olam manzarasi predmetlar, jarayonlar, xususiyatlar va boshqalarning "suratlari", "tasvirlari" to'plami emas, chunki u o'zida ham aks ettirilgan ob'yektlarni, ham uni aks ettiruvchi sub'yektning nuqtai nazarini, uning bu ob'yektlarga munosabatini o'z ichiga oladi, buning ustiga sub'yekt nuqtai nazaridan-xuddi ob'yektlar kabi reallikdir. Boz ustiga, inson olamni passiv holda emas, balki faoliyatda aks ettirar ekan, ob'yektlarga bo'lgan munosabat u tomondan nafaqat keltirib chiqariladi, balki bu ob'yektlarni o'zgartirib yuborishga ham qodirdir.

Ammo olam sodda manzarasining u yoki bu fragmentini tadqiq qilish ikkita o'lchovni-til materialini tanlash va uni interpretatsiya qilishni shart qilib qo'yadi. Bizning fikrimizcha, "olamning lisoniy manzarasi" va "konsept" tushunchalarini o'rganishda bu o'zini oqlaydi". Konsept" termini hozirgi fanda eng faol terminlardan biri, ammo uning mazmuni yetarli darajada aniqlanmagan.

Har bir til o'zining dunyoqarashi, madaniyati asosida dunyoni aks ettiradi. Lisoniy manzara-bu til orqali yaratilgan, jamiyatga xos bo'lgan olam modeli hisoblanadi. Tabiat hodisalari, ayniqsa yomg'ir, bu modelda alohida o'rin egallaydi, chunki u inson hayoti bilan chambarchas bog'liq.

Kognitiv lingvistika konsept tabiatini o'rganishga alohida e'tibor qaratadi, chunki har bir konsept inson uchun nihoyatda muhim bo'lgan dunyo haqidagi bilimlarni birlashtiradi va shu bilan birga, ahamiyatsiz tasavvurlarni chetga chiqaradi. Konseptlar tizimi inson tomonidan haqiqatni anglashni, uning o'ziga xos konseptual "manzarasi"ni aks ettiruvchi dunyo manzarasini (olamni ko'rish, olamni idrok etish) shakllantiradi va aynan shu asosda inson dunyoni tafakkur qiladi¹.

Konsept tushunchasi inson tafakkur jarayonida foydalanadigan, tajriba va bilim mazmunini aks ettiruvchi ma'nolarni ifodalaydi. Til manzarasi - bu til egalarining madaniyati va mentalitetiga xos bo'lgan o'ziga xoslikni belgilovchi, tilning mavjudligi va faoliyat yuritishini

ta'minlovchi barcha mumkin bo'lgan mazmunlar tizimidir².

Boshqacha aytganda, bu - muayyan til jamoasida mavjud bo'lgan dunyo haqidagi tasavvurlarning til orqali aks etishidir. Konseptlar esa til manzarasini tashkil etuvchi tarkibiy qismlar, ya'ni "g'ishtar" hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, konsept - bu kollektiv ongning til orqali ifodalangan va etnomadaniy xususiyatlar bilan belgilangan birligi bo'lib, uni to'liq anglash uchun til, ong va madaniyatni kompleks o'rganish zarur.

Ingliz tilida "rain" leksemasi dastlabki, denotativ ma'noda osmondan suv tomchilari shaklida tushadigan tabiiy hodisa sifatida izohlanadi³. Biroq tilshunoslikda e'tirof etilishicha, so'zlarning semantik hajmi ularning leksik tasvirigagina emas, balki ular ifodalagan konseptlarning madaniy va ijtimoiy konnotatsiyalariga ham bog'liqdir⁴.

"Rain" konsepti ingliz tilida ko'plab frazeologik birliklar, maqollar va metaforik ifodalarda salbiy yoki og'ir holatlar timsolida namoyon bo'ladi. Masalan, **«to rain on someone's parade»** iborasi biror kishining rejasini buzish, xursandchiligiga soya solish ma'nosida qo'llaniladi. Bu ibora orqali yomg'irning ijtimoiy-psixologik konnotatsiyasi — ya'ni quvonchga to'sqinlik qiluvchi holat sifatidagi qiyosiy obrazi aks ettiriladi⁵.

Shuningdek, **«to take a rain check»** ifodasi biror taklif yoki tadbirni keyinga qoldirish ma'nosini bildiradi. Bu ibora, yomg'irli ob-havoning rejalashtirilgan faoliyatlarga halal beruvchi tabiati bilan bevosita bog'liq bo'lib, anglashiladigan ijtimoiy kontekstda odatiy muomala shakliga aylangan⁶.

«Rainy day» iborasi esa metaforik ma'noda "qora kun", ya'ni moliyaviy qiyinchilik, noaniq yoki xavfli kelajak tasvirini ifodalaydi. Ushbu ibora ingliz tilidagi iqtisodiy-madaniy stereoti-

² Домбровская М.В. Концепт «Дождь» как компонент национальной картины мира. – Новосибирск, 2006.

³ (Oxford Advanced Learner's Dictionary, 2020). Верецагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. — М.: Русский язык, 1990.

⁴ Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Школа «Языки русской культуры», 2007.

⁵ Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford University Press, 2010.

⁶ Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. — Oxford: Clarendon Press, 1998.

¹ Vorkachyov S.G. Kognitivnaya lingvistika i konsept "emocional'nost'" // Voprosy kognitivnoy lingvistiki, 2004.

planning til vositasida obyektivlashuvi sifatida tahlil qilinadi¹.

Paremiologik birliklardan **«Into each life some rain must fall»** (garchi yomg'ir har kimning hayotiga tushadi degan ko'rinishda bo'lsa-da) maqoli hayotdagi muammolarni tabiiy holat sifatida qabul qilish zarurligini anglatadi. Bu yerda yomg'ir og'riq, qayg'u va vaqtincha og'irlik ramziga aylanadi.

Bundan tashqari, **«It never rains but it pours»** degan ibora muammolar va noxush holatlarning ketma-ket va kuchayib yuzaga kelishini ta'kidlaydi. Yomg'ir bu yerda faqat salbiy holat emas, balki ularning ko'pligi va to'satdan yuzaga chiqishi bilan ham ifodalanadi².

Bu misollar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida "rain" konsepti ko'pincha ruhiy tushkunlik, tashqi to'sqinlik, rejalarning buzilishi, favqulodda va salbiy holatlarning ramzi sifatida ifodalanadi. Shu bilan birga, ushbu frazeologik birliklar milliy madaniyat va mentalitetda yomg'irga nisbatan mavjud bo'lgan psixologik-emotsional munosabatni ifoda etadi.

Ba'zida kuchli yomg'irni ifodalovchi metaforik birliklarlar tarzida ham uchramiz. Ingliz tilidagi frazeologik tizimda kuchli yomg'ir holati juda obrazli, ba'zida g'ayritabiiy ifodalar vositasida tasvirlanadi. Bunday metaforalar ijtimoiy-madaniy konnotatsiyani uzviy tarzda o'z ichiga olgan bo'lib, ular nafaqat til estetikasi, balki konseptual fikrlash tarzining ham ko'zgusi hisoblanadi³.

Eng mashhur iboralardan biri **«It's raining cats and dogs»** bo'lib, bu ifoda shiddatli, to'xtovsiz yog'ayotgan yomg'irni ifodalaydi. Mazkur iboraning kelib chiqishiga oid bir nechta versiyalar mavjud bo'lib, ulardan biri o'rta asrlarda yomg'ir kuchli yog'ganda tom ustidagi mushuk va itlar tushib ketishi holatlari bilan bog'lanadi⁴. Bundan tashqari, **«It's bucketing down»** iborasi yomg'irning chelakdan quygandek yog'ishini tasvirlaydi. Bu yerda "bucket" ele-

menti yordamida intensivlik darajasi oshirilgan bo'lib, leksik giperbola orqali kuchli ob-havo holati obrazli ifodalanadi⁵.

Yana bir ifoda — **«The heavens opened»** — osmonda bulutlar ochilib, birdaniga yomg'ir quygandek manzarani bildiradi. Bu ibora ko'pincha dramatik kontekstda qo'llanilib, o'zida kuchli emotsional va vizual ta'sirni mujassamlashtiradi.

Ushbu frazeologik birliklarning barchasi "rain" konseptining ingliz tilida salbiy, tahdidli, favqulodda yoki keskin emotsional holatlarning timsoli sifatida ishlatilishiga xizmat qiluvchi lingvistik vositalar ekanini ko'rsatadi. Ular orqali tabiat hodisasi inson hayotidagi muhim voqealiklar bilan qiyosiy asosda ifodalanadi. Qiziqarli jihati shundaki, ingliz tilidagi til manzarasida "yomg'ir" konsepti bilan bog'liq barqaror iboralarning aksariyati aynan **kuchli yog'inni** ifodalaydi. Bu holat o'zbek tilida **"kuchli yomg'ir"** so'zi yoki **"paqirlab quyayotgandek"**, **"yomg'ir devordek yog'moqda"** kabi barqaror iboralar bilan ifodalanadi. Ehtimol, bu ingliz orollariga xos iqlim sharoiti bilan bog'liq bo'lib, u yerda kuchli yomg'irlar ko'proq uchraydi.

O'zbek tilida "yomg'ir" konsepti asrlar davomida shakllangan dehqonchilik madaniyati, suv resurslarining cheklanganligi, zamin va tabiat bilan uyg'un hayot tarziga bevosita bog'liq holda ijobiy semantik konnotatsiyalar bilan boyigan. Mahalliy til tizimida "yomg'ir" ko'pincha hayot manbai, poklik, baraka va osoyishtalik timsoli sifatida talqin qilinadi. Bu esa xalqning ekologik ongida yomg'irga nisbatan iliq va qadrllovchi munosabat shakllanganini anglatadi⁶.

Masalan, xalq orasida keng tarqalgan **"Yomg'ir yog'sa, baraka bo'ladi"** degan naqlda yomg'ir bevosita rizq, hosildorlik va yer unumdorligi bilan bog'lanadi. Bunday semantik yuklama yomg'irni ijobiy hodisa sifatida qabul qilishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu holat o'zbek xalqining agrar madaniyatida yomg'irning mavsumiy holatlar bilan qanday ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Shuningdek, **"Yomg'irli kunlar tinchlik alo-mati"** degan ibora orqali yomg'ir osoyishtalik,

¹ Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By.* — Chicago: University of Chicago Press, 1980.

² Carter R., McCarthy M. *Cambridge Grammar of English.* — Cambridge University Press, 2006.

³ Арутюнова Н.Д. *Логика и лингвистика. Очерки по методологии структурно-семантического исследования языка.* — М.: Наука, 1999.

⁴ Ammer C. *The American Heritage Dictionary of Idioms.* — Houghton Mifflin Harcourt, 2013.

⁵ Fernando C. *Idioms and Idiomaticity.* — Oxford University Press, 1996.

⁶ Karimov A.A. *O'zbek tilining metaforik imkoniyatlari.* — Toshkent: Fan, 2012.

jimjitlik va ichki sokinlik ramzi sifatida qabul qilinadi. Bu yerda yomg'ir voqelikni emas, balki ijtimoiy psixologik holatni - tinch va xavfsiz muhitni ifodalovchi metaforik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari, **“Qor-yomg'irga qaramay yo'l oldi”** kabi iboralarda yomg'ir shunchaki ob-havo holati sifatida emas, balki inson irodasi, qat'iyat va bardoshni sinovdan o'tkazuvchi shart-sharoit sifatida tasvirlanadi. Ushbu ibora orqali yomg'ir hayotdagi to'siqlar, sinovlar fonida, ulardan ustun kelish obrazida ishlatiladi.

O'zbek tilida yomg'irga ijobiy ma'no yuklanishi xalqning qadimiy dunyoqarashi, eko-kognitiv jihatdan tabiat bilan uyg'un yashash falsafasiga asoslangan. Bu holat til vositasida konseptual fikrlashda aks etadi va xalq og'zaki ijodida mustahkam o'rin egallagan¹.

O'zbek badiiy adabiyoti, poeziyasi hamda xalq og'zaki ijodida “yomg'ir” obrazi ko'pincha lirik, romantik va falsafiy mazmunlar bilan boyitilgan holda namoyon bo'ladi. Bu esa konseptual ifodaning emotsional-estetik darajada kuchaytirilganini ko'rsatadi. Jumladan, yomg'ir muhabbat, sog'inch, ichki tozalanish, tabiatning uyg'onishi va ruhiy poklanish kabi tushunchalar bilan bevosita semantik aloqada bo'ladi².

Masalan, **“Yomg'ir yog'di yuragimga, g'amlarim yuvilib ketdi”** misolida tashqi yomg'ir ichki ruhiy holat, ya'ni qalbnining yengillashuvi, g'amdan tozalanishi bilan parallel tarzda tasvirlanadi. Yomg'ir bu yerda poklovchi, yangilovchi, yuvuvchi kuch sifatida qaraladi. Shu orqali yomg'ir faqat fizika hodisasi emas, balki estetik obraz, ichki dunyoning emotsional ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Folklor va maqol-matallarda ham yomg'ir hayotbaxsh kuch, rizq manbai va baxt belgisi sifatida talqin qilinadi. Xususan, o'zbek xalq ertaklari va qo'shiqlarida yomg'ir zaminni uyg'otuvchi, tabiatni jonlantiruvchi kuch sifatida keltiriladi. Bu holat xalq dunyoqarashida yomg'irga bo'lgan iliq munosabat, unga yashovchanlik manbai sifatida qarash shakllanganini ko'rsatadi³.

Yomg'ir konsepti ayni vaqtda o'zbek adabiyotida ham ruhiy kechinmalar, insonning ichki holatlari, sevgi, hasrat va ma'naviy yangilanish bilan bog'langan holda uchraydi. Bu obraz ko'pincha mavsumiy o'zgarishlar, yangilanishlar bilan uyg'unlashtirilgan poetik ramzga aylanadi.

Natijalar va amaliy misollar. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida aniqlanishicha, o'zbek tilidagi til manzarasida mazkur yog'in turini ifodalovchi asosiy so'zlar quyidagilardan iborat: yomg'ir, kuchli yomg'ir va mayda yomg'ir, sekin va doimiy yog'adigan yomg'ir. Shuningdek, ayrim so'zlar og'zaki nutq shaklida (shevaga oid) uchraydi, masalan: sevalab yog'ish, yomg'ir shitirlab yog'ishi, jala quyishi, sel yog'ishi, do'l yog'ishi, mayda tomchilab yog'ishi kabi.

Shu bilan birga, ingliz tilida esa ob-havo hodisasini ifodalovchi taxminan 12–15 ta inglizcha so'zlar mavjud bo'lib, inglizlar kundalik turmushda quyidagi leksik birliklarni ko'proq ishlatishadi: **rain** (yomg'ir), **mizzle**, **drizzle** (mayda yomg'ir), **spotting** (yengil yog'in), **shower** (kutilmagan yoki qisqa muddatli yomg'ir), **torrential** (to'kilib yog'adigan kuchli yomg'ir), **storm** (dovul), **deluge** (sel), **downpour** (shiddatli yomg'ir), **hurricane** (dahshatli shamolli dovul), **sleet** (yomg'ir va qor aralash yog'in), **hail** (do'l), **pissing down**, **tipping down**, **potting** (og'ir yog'in ifodalari, ba'zilar og'zaki tilda ishlatiladi).

Ingliz tilida so'zlashuvchilar orasida eng ko'p uchraydigan maqollardan - bu juda kuchli yomg'irni ifodalaydigan **«It is raining cats and dogs»** iborasi hisoblanadi. Biroq, ingliz tilida so'zlar tez yangilanib turishi hisobiga inglizlarning ko'pchiligi ushbu ibora biroz eskirgan deb hisoblaydi va hozirgi kunda ko'proq katta yoshli britaniyaliklar tomonidan ishlatilishini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, hozirgi kunda “yomg'ir” konseptini ifodalash uchun ingliz tilidagi til manzarasi vakillari quyidagi iboralardan foydalanishadi: **it is bucketing down** (to'kilib yomg'ir yog'moqda), **it is tipping down** (shiddat bilan yomg'ir yog'moqda), **teeming rain** (yomg'ir to'xtovsiz yog'moqda), **the heavens have opened** (osmon darvozalari ochilib ketgandek yomg'ir quyayapti), **it is spitting** (mayda, sekin yomg'ir yog'moqda), **it's drumming down** (yomg'ir qattiq shovqin bilan yog'moqda). Kuchli yomg'irga qo'shimcha ravishda kuchli shamol

¹ Erkinov A.S. Til va tafakkur: Semantik tahlillar. – Samarqand: Ma'naviyat, 2008.

² Normurodov B. Til – madaniyat – konsept: Lingvokulturologik yondashuv. – Buxoro: Ilm ziyo, 2016.

³ Jo'raqulov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi poetikasi. – Toshkent: Fan, 2014.

ham bo'lib, soyabonlarni ag'darib yuboradigan darajada bo'lsa, "yomg'ir" konseptining ifodasiga «**It is raining sideways**» (yomg'ir yon tomonga, gorizontol holatda yog'moqda) iborasi ham qo'shiladi.

Qiziqarli jihati shundaki, ingliz tilidagi til manzarasida "yomg'ir" konsepti bilan bog'liq barqaror iboralarning aksariyati aynan **kuchli yog'inni** ifodalaydi. Bu holat o'zbek tilida **"kuchli yomg'ir"** so'zi yoki **"paqirlab quyayotgandek"**, **"yomg'ir devordek yog'moqda"** kabi barqaror iboralar bilan ifodalanadi. Ehtimol, bu ingliz orollariga xos iqlim sharoiti bilan bog'liq bo'lib, u yerda kuchli yomg'irlar ko'proq uchraydi.

Yomg'ir insonlarning psixologiyasiga turlicha ta'sir o'tkazadi, "Yomg'ir sizga nimani eslatadi?" degan savolga quyidagi javoblarni berish mumkin: loyqalik, yangilik (yoki tozalik), zulmat, sokinlik, qulaylik, yomon kayfiyat va boshqalar. Biroq, ushbu savolga eng ko'p beriladigan javob sifatida - **g'amginlikni** ko'rsatishimiz mumkin. Ehtimol, bu holat til manzarasida yomg'ir ko'pincha ko'z yoshlari bilan bog'lanishi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan esa, mayda yomg'ir yog'ayotgan bulutli osmon odatda kuz fasliga xos bo'lib, u mamlakatimizda ko'pincha cho'zilib ketadi. Bu esa quyosh va iliqlikning yetishmasligi tufayli insonning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, yomon kayfiyat va holsizlikni keltirib chiqaradi. Ingliz tilida so'zlashuvchilarda esa: kundalik hayot, yomon ob-havo, sovuq, melanxoliya (xafalik, tushkunlik holati), yomon kayfiyat, issiq choy kabi ta'sirlarni aniqladik.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijasiga ko'ra, "yomg'ir" konseptining milliy til manzarasidagi ifodalanishidagi farqlar, avvalo, O'zbekiston va Buyuk Britaniya iqlimlaridagi tafovutlar hamda odamlarning ushbu ob-havo hodisasiga bo'lgan munosabati bilan izohlanadi. Buyuk Britaniyada iqlim yumshoq, o'zgaruvchan va juda noaniq bo'lgani sababli, ob-havo kun davomida bir necha bor o'zgarishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, aholi orasida ob-havo mavzusining doimiy muhokama qilinishiga olib keladi britaniyaliklarning ko'pchiligi deyarli doimiy ravishda ob-havo haqida so'z yuritadilar va buning uchun ularga ko'plab so'zlar kerak bo'ladi. Ingliz tilining kompressiyaga - ya'ni ma'lum bir mazmunni ifodalashda bir nechta so'zlardan iborat iboralar o'rniga qisqa va aniq ifodalarni qo'llashga intilishini inobatga olgan holda, ingliz tilidagi til

manzarasida "yomg'ir" konsepti, avvalo, turli xil yomg'ir turlarini ifodalovchi ko'plab leksik birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, o'zbek tilidagi til manzarasida ayni shu yomg'ir turlari **sifatning muhim rol o'ynaydigan so'z birikmalari** orqali ifodalanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "yomg'ir" konsepti ingliz va o'zbek tillarida turlicha lingvokulturologik talqinlarga ega. Ingliz tilida bu konsept asosan salbiy semantik yuklamalar bilan boyitilgan bo'lib, u inson hayotidagi to'sqinliklar, qayg'u, rejalarning buzilishi yoki ruhiy tushkunlik kabi holatlarni ifodalovchi metafora sifatida ishlatiladi. Aksincha, o'zbek tilida "yomg'ir" konsepti ijobiy, hayotbaxsh, baraka va poklanish bilan bog'langan obrazlar orqali ifodalanadi.

Bu farqlar har ikki til egalarining tabiiy muhitga munosabati, tarixiy-madaniy rivojlanish yo'li hamda hayot tarzidan kelib chiqadigan kognitiv xususiyatlari bilan belgilanadi. Natijada, lingvokulturologik tadqiqotlar yordamida ushbu konseptual tafovutlar til va madaniyatning o'zaro ta'sirini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Bu tadqiqotni yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va amaliy jihatdan qo'llash uchun quyidagi **amaliy takliflarni** berish mumkin:

1. O'zbek va ingliz tillaridagi *milliy korpuslar* (O'zbek tilining Milliy korpusi, British National Corpus, COCA – Corpus of Contemporary American English va boshqalar) asosida "yomg'ir" "rain" konsepti hamda ular bilan bog'liq frazeologik birikmalarni statistik jihatdan tahlil qilish;

2. Har ikki tildagi yomg'irga oid maqollar, matallar, idiomalar va she'riy iboralarni to'plash va ularni tematik tasnif asosida (masalan: ijobiy, salbiy, neytral) ajratish. Bu orqali har ikki xalqning mentalitetida yomg'ir qanday talqin etilishini ko'proq madaniy kontekstda yoritish mumkin bo'ladi;

3. Talabalar, ingliz tili o'qituvchilari yoki turli yoshdagi respondentlar ishtirokida "yomg'ir"ga oid so'z yoki iboralarga birinchi assotsiatsiyalarini yozdirish. Bu assotsiativ tajriba natijalarini ingliz va o'zbek auditoriyalari kesimida solishtirib ko'rish;

4. Yomg'ir konsepti asosida inglizcha-o'zbekcha lingvokulturologik lug'atni tuzish. Bunday lug'at o'qituvchilar, tarjimonlar, madaniyatshunoslar uchun foydali bo'lishi bilan birga, ilmiy ishimizga ham amaliy qiymat bag'ishlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: 2006.
2. Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: 2004. С.9.
3. Mainatov A.E. Zamonaviy lingvistika: o'quv qo'llanma/ A.E.Mamatov. - Toshkent.: "Noshir" nashriyoti, 2019. 29- bet.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..// O'zbek tili va adabiyoti. - T.: 2012.
5. Maslova V.A. Kognitiv lingvistikaga kirish: O'quv qo'llanma / V.A. Maslova. — M.: Flinta: Nauka, 2004. — 296 bet.
6. Vorkachyov S.G. Kognitivnaya lingvistika i koncept "emocional'nost'" // Voprosy kognitivnoy lingvistiki, 2004.
7. Домбровская М.В. Концепт «Дождь» как компонент национальной картины мира. - Новосибирск, 2006.
8. (Oxford Advanced Learner's Dictionary, 2020). Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. — М.: Русский язык, 1990.
9. Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. — М.: Школа «Языки русской культуры», 2007.
10. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. — Oxford University Press, 2010.
11. Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. — Oxford: Clarendon Press, 1998.
12. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.
13. Carter R., McCarthy M. Cambridge Grammar of English. — Cambridge University Press, 2006.
14. Арутюнова Н.Д. Логика и лингвистика. Очерки по методологии структурно-семантического исследования языка. — М.: Наука, 1999.
15. Ammer C. The American Heritage Dictionary of Idioms. — Houghton Mifflin Harcourt, 2013.
16. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. — Oxford University Press, 1996.
17. Karimov A.A. O'zbek tilining metaforik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan, 2012.
18. Erkinov A.S. Til va tafakkur: Semantik tahlillar. – Samarqand: Ma'naviyat, 2008.
19. Normurodov B. Til – madaniyat – konsept: Lingvokulturologik yondashuv. – Buxoro: Ilm ziyo, 2016.
20. Jo'raqulov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi poetikasi. – Toshkent: Fan, 2014.